

FUQAROLIK PROTSESSIDA ASHYOVIY DALILLARNI JALB QILISH VA BAHOLASH TARTIBI VA USULLARI

Kurbonov Sardor Ikrom o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi
bosh mutaxasissi

*Ushbu maqolada ashyoviy dalillar ish bo'yicha faktligini, unga to'g'ri baho berish va jalb qilish ishni to'g'ri hal qilishdagi eng muhim element ekanligi, **ikkinchidan**, dalillarning tasniflanishi garchi o'rganilgan bo'lsada, ashyoviy dalillarni jalb qilishda nizolashayotgan taraf sudga dalil taqdim etadi va ko'pincha dalil ikkinchi tarafda joylashganligi bois, dalillarni ta'minlashdagi muammo **Uchinchidan**, hozirgi vaqtda dunyoning barcha qismida texnika-texnologiya rivojlanib, barcha soha elektronlashtirilib bormoqda, shu boisdan elektron tarzda taqdim etiladigan dalillar, xususan elektron tarzda ashyoviy dalillarni ishonchliligi, aloqadarligi, maqbulligiga oid masalalari qonunchilikda yoritib berilmaganligi, **to'rtinchidan**, dalillarga oid sud ekspertizasiga oid masalalarning baholash jarayonidagi mo'himligi kabi holatlar dolzarb sanaladi va o'rganilib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: dalil, sud-huquq tizimi, tuzilma, strategiya, ijro, hujjat, isbot, shaxsiy, ashyoviy, dastlabki, hosila, ta'minlash, obyekt va predmet.

Hozirgi vaqtda barcha sohalarda jadal islohotlar amalga oshirilib, shu asnoda sud-huquq tizimida ham bir qancha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimizning 2016-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017 yil 21 fevral kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari buning yaqqol misolidir. 2022-yilning 28-yanvardagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi

Prezident Farmoni qabul qilindi. U 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan iborat bo‘lib, uning II yo‘nalishi (**Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish**), shu maqsadlardan, **15-maqsadda davlat organlari va mansabdor shaxslarning ustidan sudlar nazoratini kuchaytirish haqida, 18-maqsadda sud organlari ijrosini ta‘minlash haqida, Bundan tashqari sudlarda yagona darcha tamoyili orqali ishlash kabi bir qancha ijobiy o‘zgarishlar maqsad qilinib, amalga oshirilmoqda.** Bundan tashqari fuqarolik protsessiga fuqarolarning huquqlarini himoya qilish maqsadida o‘zgartirishlar kiritilib borilmoqda.

Dalillar sud ishlarida juda katta ahamiyat kasb etganligi bois 2020 yil 19 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 35-sonli qarori qabul qilingan. Dalillar nafaqat fuqarolik protsessining balki, iqtisodiy, ma‘muriy sud ish yurituvining, jinoyat protsessining ham eng muhim qismi sanaladi. Sababi, dalil nizoni kimning foydasiga hal qilishni belgilovchi asosiy omil sanaladi. Dalillar va isbotlashga oid masalaga ko‘pchilik olimlar tomonidan qo‘l urilsada, ushbu mavzu sud ish yurituvida eng muhim jihatlardan bo‘lganligi bois, uni takomillashtirish masalasi doimo dolzarb sanaladi. Bundan tashqari texnika texnologiya rivojlangani sari elektron tarzda sudlarga dalillarni taqdim qilish maslasi ham ko‘payib bormoqda. Shu boisdan, elektron tarzda taqdim qilinadigan dalillarning huquqiy tabiatiga ham to‘xtalish dalilning bir qismini tashkil qiladi.

Dalil bu- ish uchun juda muhim element bo‘lib, sud ishini mazmunan hal etish uchun eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan faktik ma‘lumot sanaladi.

Dalil so‘zining lug‘aviy ma‘nosi belgi, iz, isbot va ularni tasdiqlovchi, ular haqida ma‘lumot beruvchi narsa va fakt¹ deb o‘zbek tilining imlo qoidalarida ta‘rif berilgan. Bundan ham ko‘rinib turibdiki dalil ishdagi holat bo‘yicha asosiy isbot

¹ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek

vositasi ekanligini anglash mumkin. Dalilga oid normalar va isbotlash vositalari asosan qadimgi Rimda ancha yaxshi shakllangan. Bu haqida Z.Sh.Shomammedova Rim yuristlarining eng oliy ixtirolari va avlodlarga qoldirgan bebaho qadriyatlaridan biri dalillarni erkin muhokama qilish, aql va vijdon ko'rsatmasi bilan qozonilgan e'tiqod, ya'ni ichki ishonchdir. Bu ishonch formal sharoitlarga emas, ishning barcha tomonlarini oqilona va xolisona tekshirishga asoslangan. Bu holat fuqarolik ishi va jinoiy ishlarni ko'rishda teng miqyosda ish uchun ahamiyatli bo'lgan² degan fikrni bayon qilgan. Haqiqatdan ham hozirgi sudlarda ham sudyaning ichki ishonchi dalillarga baho berishda aks etgan. Keyinchalik dalillarga oid normalar takomillashib bordi va bugungi kunda ham dali lishni sudda ko'rishdagi asosiy omil sanaladi. Shu vaqtlarda ham bugungi kundagi sudyaning ichki ishonchi orqali ishni mazmunan hal etish haqida qarashning shakllangani ham taqsinga sazovor. Yuridik jihatdan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda FPK) ning 71-moddasida quyidagicha ta'rif beriladi: Ishda ishtirok etadigan taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlashda sud tomonidan qonunga muvofiq belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qonundagi boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalillardir deyilgan. Demak, dalilning bir qancha turlari bo'lib, faqatgina ko'rilayotgan ish doirasida ishdagi talab va e'tirozlarning mavjudligini aniqlashda isbot bo'luvchi faktik ma'lumot ekanligi bois dalillarning sudga oidligi ham sud uchun muhim sanaladi. Dalillarni tasniflanishiga keldaigan bo'lsak, protsessual huquq fanida asosan dalillarning ikkita shaklda e'tirof etilgan tasnifi mavjud:

birinchidan, dastlabki va hosila;

² Z.Sh.Shorahmedova Rim xususiy huquqi.: Darslik.- T.: (nashriyot nomi),2002.-148-b

ikkinchidan, to'g'ri va egri.³

Har birining xususiyatini qisqa va tushunarli bayon etadigan bo'lsak, vujudga kelish manbaasiga qarab **shaxsiy** va **ashyoviy** dalillarga ajratiladi.

Shaxsiy dalil deganda insonga tegishli bo'ladigan dalillar tushuniladi masalan, guvohlarning ko'rsatuvlari, mutaxassisning maslahatlari, ekspertning xklosasi va taraflarning va ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari kiradi. Ashyoviy dalilga esa shaxsiy xususiyatga ega bo'lmagan narsa va buyum va ashyolar kiradi. Masalan, ashyoviy dalil, yozma dalillar kiradi. Yozma dalil ham ushbu doiraga kiradi sabai shaxsiy xususiyat emas ashyoviy xususiyat mavjud. Shakliga qarab dalillar **og'zaki** va **yozma** ko'rinishda bo'ladi. Bunda dalilning sudga taqdim etilish shakli inobatga olinganligi bois shakliga qarab yozma, og'zaki, **elektron** tarzda deb tasniflagan ma'qul. Xususan O.Sh.Pirmatov "iqtisodiy protsessual va fuqarolik protsessual huquqida elektron dalillarning protsessual jihatlari" mavzusidagi dissertasiyasida elektron dalillarni alohida dalil sifatida e'tirof etadi. Tuzilishiga qarab olimlar **dastlabki** va **hosila** dalillarga bo'lishadi. Dastlabki dalilga M.M.Mamasiddiqov shunday ta'rif beradi: **dalil** bevosita birinchi manbadan olingan dalil bo'ladi. Dastlabki dalil o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohning ko'rsatmasi bo'ladi⁴. Dastlabki guvohlar orqali ma'lumot olganlar yoki ma'lumotlar hosila dalil sanaladi. Bir qarashda hosila dalil ikkinchi navbatga o'tadi, ya'ni biror bir holat yuzasidan guvohdan eshitgan bo'ladi. Bu o'rinda hosila dalil ko'p holatlarda guvohning ko'rsatuvlari va taraflarning tushuntirishlarida yuzaga keladi. Faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish jarayoniga ko'ra dalillar quyidagi turlarga bo'linadi dastlabki va hosila⁵. Shuningdek,

³ Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Верховный суд Российской Федерации, Высший Арбитражный Суд Российской Федерации, Российская Академия правосудия. Учебник. –М.: 2003. -93 с.; Гражданское процессуальное право: Учебник / С.А.Алехина, В.В.Блажеев и др.; Под ред. М.С.Шакарян. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект. 2004. –192 с.

⁴ М.М.Мамасиддиқов. Фуқаролик протсессии. Фуқаролик ишлари бо'йича судьяликка заҳирага оlingan nomzodlar uchun qo'llanma. Toshkent. Baktria press. 2014. 137- 138-b

⁵ Курс доказательственного права: Гражданский процесс. Арбитражный процесс// под ред. М.А. Фокиной—М.:Статут, 2014 [Электронный ресурс]// СПС КонсультантПлюс

dalil bilan isbotlanuvchi fakt o'rtasidagi o'zviy bog'liqlikka qarab to'g'ri va egri dalilga bo'lishadi. To'g'ri dalil deganda bevosita o'sha dalilning o'zi isbotlash uchun asos bo'ladi masalan, qarz oldi-berdisi yuzasidan da'vogarning sudga javobgar olganligi haqidagi tilxatni taqdim etishi to'g'ri dalil sanaladi va boshqa dalillar bilan isbotlash talab etilmaydi. Yurtimizda sud-huquq tizimiga e'tibor demokratik davlat qurish uchun eng muhim bosqichlardan biri ekanligiga shubha yo'q. Buning natijasi o'laroq mamlakatimizda so'ngi yillarda bir qator qonunchilikni takomillashtirishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yilning 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmonida ham sud tizimini mustahkamlashga doir ishlar amalga oshirish maqsad sifatida bir qator vazifalar qo'yilgan. Ushbu o'zgarishlardan ko'zlangan maqsad sudlar tomonidan ish to'g'ri va qonunga muvofiq amalga oshirilishi maqsad qilingan. Biroq tan olish kerakki, sudlarda dalillar juda muhim o'rin tutsada, doim ham unga yetarli darajada to'g'ri baho berilmaslik holatlari mavjud. Bu borada bir qancha Oliy Sud Plenum qarori qabul qilingan. Shunday bo'lsada, dalillar ishni hal qilishdagi eng muhim element ekanligi bois, uni urnish hamisha dolzarb mavzu bo'lib kelgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida, guvohning ko'rsatuv berish qismida, yaqinlariga qarshi ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqi fuqarolik protsessida ko'rsatilmagan. Shu boisdan, guvoh sifatida ishga jalb qilingan shaxsdan, yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqi mavjudligini va u rozi bo'lsa ko'rsatuv berishi mumkinligi haqida qoida kiritish lozim.

Guvohning ko'rsatuv berishida uning yaqin kishilariga qarshi ko'rsatuv berishda ularning roziligini olish tavsiya etiladi. Agarda rozi bo'lsa, guvoh yolg'on ko'rsatuv bilan ogohlantirilishi kerak.

Izlanishlar davomida ashyoviy dalil keng ma'noli tushuncha ekanligi unga turli xil narsa va predmetlar kirishi mumkinligi jamiyatdagi turli-xil buyum va narsa shaklida ashyoviy dalil ishga jalb qilinishi mumkin. Ashyoviy dalillarning turi ko'pligi uchun ashyoviy dalillarni ta'minlashga oid quyidagi taklif keltirildi: Dalillarni, shu

jumladan, ashyoviy dalillarni ta'minlash haqidagi ariza bo'yicha sud qancha muddatda uni ta'minlash haqida ajrim chiqarishiga oid norma aniq keltirilmagan. Shu boisdan, ishning xolatidan kelib chiqib, tez buziladigan ashyoviy dalillarni ta'minlash darhol amalga oshirilishi va boshqa hollarda aniq muddat masalan, 5 kunlik muddat qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fuqarolik protsessual koleksining 78-moddasida dalillarni ta'minlash tartibi keltirilgan. Ushbu modda uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismdan so'ng alohida yangi qoida kiritish lozim bo'ladi. Unga ko'ra:

dalillarni ta'minlashga doir arizalar sud tomonidan besh kunlik ko'rib chiqiladi. Qonunuda nazarda tutilgan hollarda va tez buziladigan ashyoviy dalillarni ta'minlash darhol amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 92-moddasida dalillarni taqdim qilish majburiyati haqida bo'lib, protsesda taqdim qilishi kerak bo'lgan dalilni sud belgilagan muddatda taqdim qilmasa, jarima qo'llashi va taqdim qilish majburiyati qolishi haqida qoida bor, lekin agarda jarima qo'llangandan keyin ham ashyoviy dalil taqdim qilinmasa qanday chora ko'rish ochiq qolgan. Shu boisdan, taqdim qilinmagach, yana jarima qo'llash ko'p vaqt yo'qotishga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olib, majburiy tarzda ashyoviy dalilni talab qilish masalasini kiritish lozim. Bunda nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslar, balki, ishda ishtirok etmaydigan shaxslar va tashkilot bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish lozim. Ashyoviy dalillar yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli-tuman obyektlar bo'lishi mumkin. Shu boisdan ularning alohida xususiyati va boshqacha holatlari, ishga a'loqador qismi bo'yicha taraflarda fakt bo'lishi mumkin. Shuning bilan birga sud dalillarga oid har xil turdagi ekspertizalarni tayinlaydi ish holatidan kelib chiqib. Bunda sudya ishga a'loqador holat bo'yicha ekspert oldiga savollar qo'yishi shartligi qonunda ham aks etgan. Shu jarayonda, taraflar ashyoviy dalil haqida ko'protq ma'lumotga ega bo'lishini inobatga olib, taraflar ham ekspert oldiga savollar qo'yishini shakllantirish kerak. Ortiqcha savollarning oldini olish uchun savollarning asoslilari sud tomonidan tanlanishi va keyin qo'yilishi kerak. Bu qoidaning kiritilishi, ishni baholashga yordam beradi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumining "fuqarolik ishlari

bo'yicha ekspertizani tayinlash, o'tkazish, shuningdek ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi qarorida ajrimda ko'rsatilishi shart bo'lgan holatlar qatoriga sud va taraflar tomonidan ekspert oldiga qo'yiladigan savollar deb o'zgartirish lozim.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek
2. Z.Sh.Shorahmedova Rim xususiy huquqi:. Darslik.- T.: (nashriyot nomi),2002.- 148-b
3. Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Верховный суд Российской Федерации, Высший Арбитражный Суд Российской Федерации, Российская Академия правосудия. Учебник. –М.: 2003. -93 с.; Гражданское процессуальное право: Учебник / С.А.Алехина, В.В.Блажеев и др.; Под ред. М.С.Шакарян. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект. 2004. –192 с.
4. М.М.Мамасиддиқов. Fuqarolik protsessi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalikka zahiraga olingan nomzodlar uchun qo'llanma. Toshkent. Baktria press. 2014. 137-138-b.
5. Курс доказательственного права: Гражданский процесс. Арбитражный процесс// под ред. М.А. Фокиной—М.:Статут, 2014 [Электронный ресурс]// СПС КонсультантПлюс.